

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/29.10.2021.T.101.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**TURSUNOVA GULBAHOR SHAROFOVNA**

**TIKUV MASHINASI GAZLAMA SURISH MEXANIZMINING  
KONSTRUKSIYASINI VA HISOBLASH METODLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.02.03- Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika  
va robototexnika tizimlari**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical  
sciences**

**Tursunova Gulbahor Sharofovna**

Tikuv mashinasi gazlama surish mexanizmining konstruksiyasini va hisoblash metodlarini takomillashtirish

**Турсунова Гулбахор Шарофовна**

Совершенствование конструкции и методов расчета механизма перемещения материала швейной машины

**Tursunova Gulbahor Sharofovna**

Improvement of the design and calculation methods of the mechanism of movement of the material of the sewing machine

**E'lon qilinganlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/29.10.2021.T.101.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**TURSUNOVA GULBAHOR SHAROFOVNA**

**TIKUV MASHINASI GAZLAMA SURISH MEXANIZMINING  
KONSTRUKSIYASINI VA HISOBLASH METODLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.02.03- Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika  
va robototexnika tizimlari**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/T1603 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek,rus,ingliz (rezyume)) Institut veb-saytida ([www.bmti\\_info@edu.uz](mailto:www.bmti_info@edu.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Djurayev Anvar**

texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Muhammadiyev Davlat Mustafoyevich**

texnika fanlari doktori, professor

**Qurbonov Fazliddin Aminovich**

texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan muhandislik-texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/29.10.2021.T.101.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023 йил «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84, faks: (+99865) 223-78-84, e-mail: [bmti\\_info@edu.uz](mailto:bmti_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan. Manzil: 200100, Buxoro, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel: (+99865) 223-78-84, faks: (+99865) 223-78-84, e-mail: [bmti\\_info@edu.uz](mailto:bmti_info@edu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi №\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**X.Q.Raxmonov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
raisi, t.f.d., professor

**R.X.Nurboyev**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, t.f.d., professor

**M.Z.Sharipov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, f-m.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda to‘qimachilik va tikuvchilik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojni to‘la qondirish uchun energiya-resurstejamkor mashina va uskunalarni qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida “Tikuvchilik mahsulotlarini, jumladan yuqori sifatli kiyim – kechaklarni keng assortimentda tayyorlash, eksport qilish bo‘yicha AQSH, Janubiy Osiyo, Yevropa va MDH davlatlari yetakchilikni egallab turishini hisobga olsak”<sup>1</sup> yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni taminlaydigan mashinalarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Yuqori sifatli tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun tikuv mashinalarini takomillashtirish, ishchi organlarini, jumladan tikish sifatini ta‘minlaydigan gazlamalarni surish mexanizmlari yangi samarali konstruksiyalarini yaratish soha uchun muhim hisoblanadi. Eksportbop tikuv buyumlarini tayyorlash uchun yuqori sifatli choklarni katta ish rejimlarida olishni taminlaydigan tikuv mashinasi ishchi organlarini, materialni surish mexanizmlari konstruksiyalarini yaratish, chuqur ilmiy tadqiqotlar asosida parametrlarini asoslash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi..

Jahonda yengil sanoat sohasida qo‘llanilayotgan tikuv texnologiyasi va mashinalari konstruksiyalarini takomillashtirishga, yangilarini yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada tayyor mahsulotlarning sifatini oshirish, tikish texnologik jarayonida uning sifatini belgilovchi talablarga mos kelgan bahyaqatorlarni olish uchun tikuv mashinasi gazlamalarni surish mexanizmi konstruksiyalari samaradorligini oshirishga alohida e‘tibor berilmoqda .

Respublikada yengil sanoatning to‘qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo‘ynachilik tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlarning turlari va assortimentini kengaytirish, shuningdek, tarmoq korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora- tadbirlar amalga oshirilib muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish strategiyasida “...milliy iqtisodiyotni barqarorligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan sanoat siyosatini ro‘yobga chiqarishni davom ettirish, yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirish va sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmini 2.4 marta o‘shishi, yengil sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish i...”<sup>2</sup> bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, energiya tejamkor konstruksiyalarni yaratish yo‘nalishida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarini qo‘llab muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 8 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi PF-6259-sonli, 2020 yil 2 sentyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasida pillachilik va qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlarito‘g‘risida»gi PF-6059-sonli,

<sup>1</sup> <https://geographyofrussia.com/legkaya-promyshlennost-mira.International Trade Centre, ttp://www.export.by/act, http://worldofschool.ru2016>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarda mo‘ljallangan yangi O‘zbekitoning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni

2019 yil 16 sentyabrdagi “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4453-sonli, 2018 yil 14 martdagi “Qorako‘lchilik sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3603-sonli Farmon va Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur olib borilayotgan tadqiqotlar natijalari respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustivor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur olib borilayotgan tadqiqotlar natijalari respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoni o‘rganilganlik darajasi.** Yengil sanoatda tikuvchilik ishlab chiqarish texnika va texnologiyasini takomillashtirish, yuqori ish unumida tikilayotgan matolarni va iplarni tanlash, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish bo‘yicha olimlardan L.Bellio, H.Schroeder, Zhao Xifaag, Zhang Zongming, S. Mende, S.Strikep, R.Sugimoto, V.N.Gorbaruk, G.A.Gaynulin, A.I.Komissarov, V.P.Sherbakov, V.L.Poluxin, V.V.Isayev, L.V.Kalnitsskiy, L.S. Magin, A.V. Markoven, E.Peychax, Y.Sherbin, V.Jukov, V.V.Rachok, L.Reybarx, O.Suzuki D.S.Mansuri, S.Baubekov, Umarova Z.M va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Mamlakatimiz olimlari A.Djurayev, M.A.Mansurova, N.Nabijonova, X.O.Raximova, I.M.Raxmonov, U.Mo‘minova, Sh.X.Behbudov, X.K. Raxmonov, S.Muxamedjanovalar tomonidan tikuv buyumlari dizayni, tikuvchilik sohasini rivojlantirish bo‘yicha mahalliy materiallardan keng assortimentdagi sifatli tikuv buyumlarini tayyorlash bo‘yicha samarali texnologiyalar ishlab chiqilgan, zamonaviy tikuv buyumlarini loyihalashda avtomatlashtirish masalalari yoritib berilgan, tikuv mashinalari va qurilmalarini takomillashtirish yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro muhandislik – texnologiya instituti va Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining OT-A3-35 «Resurstejamkor, yuqori ish unumida sifatli tikishni ta‘minlaydigan tikuv mashinalari yuritmasi konstruksiyasini ishlab chiqish va hisoblash metodlari» (2017-2018), №F5-032 “O‘zgaruvchan parametrlil mexanizmlarning analiz va sintezi ilmiy asoslarini ishlab chiqish” (200-2011 yy.) №OT-F2-61 “To‘qimachilik va yengil sanoati asosiy texnologik mashinalarning tarkibli kinematik juftli va qayishqoq elementli yangi richagli mexanizmlarni hisoblashning ilmiy asoslarini yaratish” (2017-2020 yy.), mavzularidagi loyihalar hamda “Engil sanoat texnologiya” kafedrasida ilmiy tadqiqot ishlari rejalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** tikuv mashinasi qayishqoq elementlari bo'lgan materialni surish mexanizmi konstruksiyasini ishlab chiqish, nazariy va tajribaviy tadqiqotlar asosida parametrlarini hisoblashning ilmiy asoslarini yaratish, amaliy jihatdan sifatli chok olishni ta'minlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

tikuv mashinasi tarkibli kinematik juftlari va amortizatorli reyksi bo'lgan materialni surish mexanizmini konstruksiyasini va shu yo'nalishda ilgari bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahliliy tadqiq etish;

tikuv mashinasi materialni surish mexanizmi reykali shatuni tebranish amplitudasini kinematik juftlar qayishqoq elementlarining deformatsiyalarini inobatga olgan holda shatun uzunligiga bog'liqlik qonuniyatini olish va parametrlarini asoslash;

tish garniturasini materialni ishqalanish kuchini reyka tishlarini materialga botish masofasini, amortizatorni bikrligini inobatga olib bog'lanish qonuniyatlarini va tavsiya qiymatlarini aniqlash;

mavjud va modernizatsiya qilingan tikuv mashinasidagi bosh vallar harakat qonunlari, burovchi momentlarini o'tish jarayonlaridagi va barqaror harakatdagi o'zgarish, qonunlari, koromislolar vallaridagi burovchi momentlar hamda reyka tishli garniturasini harakat qonunlari turli ish rejimlarida aniqlash;

- tavsiya etilgan tarkibli, qayishqoq elementli materialni surish mexanizmi bo'lgan modernizatsiya qilingan tikuv mashinasini to'liq omilli tajribaviy va ishlab chikarish sharoitida tadqiqotlarini o'tkazish

**Tadqiqotning obykti** sifatida qayishqoq elementli materialni surish mexanizmi bo'lgan modernizatsiya qilingan tikuv mashinasi.

**Tadqiqotning predmeti** tavsiya etilgan qayishqoq elementli materialni surish mexanizmi bo'lgan modernizatsiya qilingan tikuv mashinasi konstruksiyasini ishlash prinsipi, mexanizm kinematik xarakteristikalari, reykali shatun harakat qonuni, reykaning tebranish qonuniyatlari va bog'lanish grafiklari, tavsiya parametrlari, baxyaqatorlarni sifat ko'rsatgichlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy mexanika, oliy matematika, mashinalar mexanikasi, materiallar qarshiligi, tikuv texnologiyasi va jixozlarini hisoblash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

tikuv mashinasi tarkibli kinematik juftlari va amortizatorli reyksi bo'lgan materialni surish mexanizmini shatun va koromislolarning samarali konstruksiyasi ishlab chiqilgan.

tikuv mashinasi materialni surish mexanizmi reykali shatuni tebranish amplitudasini kinematik juftlar qayishqoq elementlarining deformatsiyalarini inobatga olgan holda shatun uzunligiga bog'liqlik qonuniyatlari olingan va parametrlarini aniqlangan;

materialni surish mexanizmi qo'llanilganda undagi rezinali amortizatorlar hisobiga o'tish jarayonlaridagi, ayniqsa yuqori chastotali tebranishlar yo'qotilishi hisobiga o'tish jarayonlari vaqti ( $1,2 \div 1,4$ ) martagacha kamayishi aniqlangan;

tavsiya etilgan tarkibli, qayishqoq elementli materialni surish mexanizmi bo'lgan takomillashtirilgan tikuv mashinasining ishlab chiqarish sharoitida tajriba sinov natijalari olingan va ishchi parametrlari aniqlangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan:**

tikuv mashinasining gazlamani surish mexanizmida amortizatori bo'lgan reykali, tarkibli kinematik juftli samarali konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

tikuv mashinasidagi bosh vellar harakat qonunlari, burovchi momentlarini o'tish jarayonlaridagi va barqaror harakatdagi o'zgarish, qonunlari, koromislolar vellaridagi burovchi momentlar hamda reyka tishli garniturasini harakat qonunlari turli ish rejimlarida aniqlangan;

to'liq omilli tajribaviy tadqiqotlar asosida yuqori ish unumida turli qalinliklardagi gazlamalarni sifatli qilib tikish imkonini amalga oshiradigan tavsiya etilgan samarali materialni surish mexanizmi bo'lgan modernizatsiya qilingan tikuv mashinasi optimal parametrlari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchligi ularning mavjud va amal qilayotgan fundamental nazariyaga mantiqan muvofiq kelishi, hisoblashlarda standartlashtirilgan usul va vositalardan foydalanilganligi, nazariy va tajribaviy izlanishlar natijalarini o'zaro mosligi, qayishqoq elementli materialni surish mexanizmi bo'lgan modernizatsiya qilingan tikuv mashinasini ishlab chiqarish sinovlarining ijobiy natijalari bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot materiallarining amaliy ahamiyati tavsiya etilgan tarkibli kinematik juftli, amortizatori bo'lgan reykali materialni surish mexanizmi hisob sxemalari, strukturaviy tahlilni natijalari, kinematik juftlardagi ortiqcha bog'lanishlarni bartaraf qilish usuli aniqlanganligi, reykali shatunni kinematik xarakteristikalarini aniqlanganligi, reyka tishli garniturasini siljish qonunini, kerakli harakat trayektoriyasini olinganligi, parametrlarini bog'lanish qonuniyatlari aniqlanganligi va maqbul qiymatlarini tavsiya etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tikuv mashinasi samarali qayishqoq elementli materialni surish mexanizmi konstruksiyasi ishlab chiqilganligi, sifatli bahyaqatorlarni hosil qilish uchun amortizatorli reyka konstruksiyasi va mexanizmni maqbul parametrlarini tavsiya qilinmaganligi, yuqori ish unumida sifatli choklarni turli qalinlikdagi materiallarni tikishda olinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi.** Tikuv mashinasi qayishqoq elementli, tarkibli reykali materialni surish mexanizmi konstruksiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yuqori sifatli tikuv mashinasi qayishqoq elementli, tarkibli reykali materialni surish mexanizmi konstruksiyasini "O'zto'qimachilik sanoati" tizimidagi "G'AYRAT CHODAK" OOO, "Parvozteks" MCHJ korxonalarida ishlab chiqarishga joriy qilingan ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2022-yil 18 oktyabr №03/25-2944-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida tikuv mashinasining ish unumdorligini 1,1-1,2 baravar oshirish imkoniyati tug'ildi; bahyachoklarning o'tkazib yuborishlari deyarli bo'lmadi, ipning uzilishi 8÷9-marta kamaydi,

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy konferensiyalarda, shu jumladan 5 ta xalqaro va 7 ta respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya bo'yicha 21 ta ilmiy ish e'lon qilingan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan nashrga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bo'lim, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya xajmi 118 sahifani tashkil etadi.


## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tikuv mashinasi gazlama surish mexanizmining konstruksiyasini va hisoblash metodlarini takomillashtirish”** deb nomlangan birinchi bobi tikuv mashinasida materialni surish mexanizmlarini mavjud adabiyotlar bo'yicha tahlili, konstruktiv xususiyatlari xamda materialni surish mexanizmini yangi konstruktiv sxemasi va ishlash prinsipi keltirilgan.

Tikuv mashinasining materialni surish mexanizmi taqsimlash vali 1, siljitish koromislosi 2, reyka 4 bilan richag 3, ko'tarish koromislosi 6, sharnirlar 7 va 10, shatun 8, shponkalar 11, rezinali yostiqlar 9 dan tashkil topgan. Bunda sharnir 10 rezinali vtulkasi 12 ning qalinligi  $h_1$ , sharnir 7 ning rezinali vtulkasi 13 qalinligi  $h_2$  dan ikki baravar katta qilib tanlangan, shu bilan birga chekka tishlarning balandligi  $h_3$ , o'rta tish balandligidan ikki baravar katta qilib tayyorlangan (1.17-rasm).

Tikuv mashinasi materialni surish mexanizmining ishlashi jarayonida koromislo 2 tebranma harakatni amalga oshirib, reyka 4 bilan beradi richagning asosan gorizontilarga qaytma harakatlanishiga imkon beradi. Koromislo 5 tebranma harakatni amalga oshirib va shatun 8 orqali reyka 4 bilan richagni ko'tarilib tushishini amalga oshiradi. Bunda reyka 4 ning o'rta tishi bitta siklda ellipsimon trayektoriyani tavsiflaydi. Reyka 4 ning yuqori holatida uning tishlari tikiladigan gazlamaga sanchilib, uni bir baxya uzunligiga suradi. Reyka 4 ning gazlamaga bosimi hisobiga (rasmda ko'rsatilmagan) rezinali yostiqlar 9 deformatsiyalanadi va reyka 4 ning tishlarini gazlama bilan tutashishini cho'zish imkonini beradi, bu esa gazlamaning bir baxya uzunligiga surilish imkonini beradi. Shu bilan bir vaqtda reyka o'rta tishi balandligining pasaytirilishi hisobidan, ya'ni reyka 4 ning tishlari balandligi hosil qilgan botiq egri chiziq shaklida tayyorlanishida, ellipsning yuqori nuqtasida asosan reyka 4 tishlarining gazlama bilan tutashuvi sodir bo'ladi.




**1-rasm. Tavsiya etilgan qayishqoq elementlari bo'lgan materiallarni surish mexanizmi kinematik sxemasi**

Bu materialning bir tekisda surilishini ta'minlaydi. Mexanizm ishlaganda texnologik yuklama va inersion kuchlarning o'zgarishi hisobiga sharnirlar 7 va 10 ning rezinali vtulkalari 12 va 13 larni deformatsilanishi sodir bo'lib, ular yuklamalarni yetarli darajada amortizatsiyalaydi. Bundan tashqari rezinali vtulkalar 12 va 13 ning deformatsiyalanish qiymatlarini reyka 4 ning ellipssimon trayektoriyasi tuzatadi (korreksiyalanadi). Bunda rezinali vtulka 13 ning qalinligi  $h_2$  ga nisbatan rezinali vtulka 12 qalinligi  $h_1$  ning ikki baravar kattaligi hisobidan, yuqori va pastki holatlarda ellipsning tuzatilishi reyka 4 ning ba'zi to'xtashlari bilan sodir bo'ladi. Bu reyka 4 ning gazlama bilan talab etilgan tutashish maydonini ta'minlaydi. Haqiqatda reyka 4 ning gazlama bo'ylab sirpanishlari bartaraf etiladi, yuqori tezlik tartibotlarida sifatli baxyalar hosil qilish uchun gazlamani sutsrish mexanizmining ishonchli ishlashi ta'minlanadi. Ushbu surish mexanizmlarining ishlash resurslari yetarlicha yuqoridir.

Dissertatsiyaning **“Tavsiya etilgan qayishqoq elementli materialni surish mexanizmini nazariy tadqiqotlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tavsiya etilgan gazlamani surish mexanizmi strukturaviy tahlili asosida ortiqcha bog'lanishlarni bartaraf etish metodikasi, kinematik tahlillar natijasida shatun va koromislorni harakat qonunlari, tarkibli reyka tishli garniturasini tebranishlari, harakat trayektoriyasi, gazlamani ilashtirish kuchlarini ifodalovchi formulalar olingan va tavsiya parametrlari keltirilgan. Gazlamani surish mexanizmida uchta qayishqoq elementlar qo'llanilishi hisobiga mavjud uchta ortiqcha bog'lanish bartaraf etilgan. Bunda Chebishev formulasiga asosan, ortiqcha:

$$q = W - 6n + 5P_5 + 4P_4 + 3P_3 + 2P_2 + P_1 - K = 2 - 6 \cdot 4 + 5 \cdot 5 + 4 \cdot 0 + 3 \cdot 0 + 2 \cdot 0 + 1 \cdot 0 - 3 = 0 \quad (1)$$

bu yerda,  $W = 2$  – qo'zg'aluvchan darajasi;  $n$  – qo'zg'aluvchan bo'g'inlar soni;  $P_1, P_2, P_3, P_4, P_5$  – tegishli sinf kinematik juftlar;  $K$  – qayishqoq elentlar soni. Bunda kinematik juftlardagi reaksiya kuchlari yetarli darajada kichik bo'ladi. 2-rasmda gazlamani surish mexanizmi hisob sxemasi keltirilgan.



2-rasm. Hisob sxemasi

Tavsiya etilgan materialni surish mexanizmidagi C va F kinematik juftlar tarkibli bo'lib rezinali amortizatsiyalarini maksimal deformatsiyalarini inobatga olish kerak bo'ladi. Bunda 2-rasmga asosan quyidagi ifodalarni yozish o'rinli bo'ladi:

$$\begin{aligned} l_{2\max} &= l_2 + \Delta l_2; \quad l_{2\min} = l_2 - \Delta l_2; \quad l_{3\max} = l_3 + \Delta l_3; \quad l_{3\min} = l_3 - \Delta l_3; \\ l_{4\max} &= l_4 + \Delta l_4; \quad l_{4\min} = l_4 - \Delta l_4; \quad l_{5\max} = l_5 + \Delta l_5; \quad l_{5\min} = l_5 - \Delta l_5; \\ l_{6\max} &= l_6 + \Delta l_6; \quad l_{6\min} = l_6 - \Delta l_6; \end{aligned} \quad (2)$$

bu yerda,  $\Delta l_2, \Delta l_3, \Delta l_4, \Delta l_5, \Delta l_6$  – materialni surish mexanizmi bo'g'inlari uzunliklarini maksimal o'zgarish qiymatlari.

Olingan (2) ni hisobga olib mexanizm bo'g'inlarni xarakat qonunlarini quyidagicha yozamiz:

$$\begin{aligned} \varphi_{2\max} &= \arcsin \frac{l_1 \sin \varphi_1}{l_2 + \Delta l_2}; \quad \varphi_{2\min} = \arcsin \frac{l_1 \sin \varphi_1}{l_2 - \Delta l_2}; \\ l_{3\max} &= -l_1 \cos \varphi_1 - (l_2 + \Delta l_2) \cos \left[ \arcsin \frac{l_1 \sin \varphi_1}{l_2 + \Delta l_2} \right]; \\ l_{3\min} &= -l_1 \cos \varphi_1 - (l_2 - \Delta l_2) \cos \left[ \arcsin \frac{l_1 \sin \varphi_1}{l_2 - \Delta l_2} \right]; \\ \varphi_{4\max} &= \varphi_4 + \Delta \varphi_4; \quad \varphi_{4\min} = \varphi_4 - \Delta \varphi_4; \\ l_{5\max} &= \sqrt{\left[ l + l_1 \cos(\varphi_2 + \Delta \varphi_2) - l_2 \cos \left( \arcsin \frac{l_1 \sin \varphi_1}{l_2 + \Delta l_2} \right) \right]^2 + (l_4 + \Delta l_4)^2 -} \\ &\quad - \sqrt{2(l_4 + \Delta l_4) \left[ l + l_1 \cos \varphi + (l_2 + \Delta l_2) \cos \left( \arcsin \frac{l_1 \sin \varphi}{l_2 + \Delta l_2} \right) \right]} \sqrt{\cos(\varphi_4 + \Delta \varphi_4)} \\ l_{5\min} &= \sqrt{\left[ l + l_1 \cos(\varphi_2 - \Delta \varphi_2) + l_2 \cos \left( \arcsin \frac{l_1 \sin \varphi_1}{l_2 - \Delta l_2} \right) \right]^2 - (l_4 - \Delta l_4)^2 +} \end{aligned}$$

$$\begin{aligned}
& + \sqrt{2(l_4 - \Delta l_4) \left[ l - l_1 \cos \varphi + (l_2 - \Delta l_2) \cos \left( \arcsin \frac{l_1 \sin \varphi}{(l - \Delta l_2)} \right) \right] \cdot \cos(\varphi_4 - \Delta \varphi_4)} \\
\varphi_{5\max} & = \{ \arccos \frac{(l_5 + \Delta l_5)^2 + (l_6 + \Delta l_6)^2 - (l_4 + \Delta l_4)^2}{2l_5 l_6} = \\
& = \arccos \left\{ \frac{1}{2(l_5 + \Delta l_5) \left[ l + l_1 \cos \varphi + (l_2 + \Delta l_2) \cos \left( \arcsin \frac{l_1 \sin \varphi}{(l_2 + \Delta l_2)} \right) \right]} \right\} \\
& \cdot \left[ l + l_1 \cos \varphi + l_2 \cos \left( \arcsin \frac{l_1 \sin \varphi}{(l_2 + \Delta l_2)} \right) \right] \cdot \cos(\varphi_4 + \Delta \varphi_4) + \\
& + (l - l_3 + \Delta l_3)^2 - l_4 + \Delta l_4 \} \\
\varphi_{5\min} & = \arccos \frac{(l_5 - \Delta l_5)^2 + (l_6 - \Delta l_6)^2 - (l_4 - \Delta l_4)^2}{2l_5 l_6} = \\
& = \arccos \left\{ \frac{1}{2(l_5 - \Delta l_5) \left[ l + l_1 \cos \varphi + (l_2 - \Delta l_2) \cos \left( \arcsin \frac{l_1 \sin \varphi}{(l_2 - \Delta l_2)} \right) \right]} \right\} \\
& \cdot \left[ l + l_1 \cos \varphi + (l_2 - \Delta l_2) \cos \left( \arcsin \frac{l_1 \sin \varphi}{(l_2 - \Delta l_2)} \right) \right]^2 + \\
& + (l_4 - \Delta l_4) \left[ l + l_1 \cos \varphi + l_2 \cos \left( \arcsin \frac{l_1 \sin \varphi}{(l_2 - \Delta l_2)} \right) \right] \cdot \\
& \cdot \cos(\varphi_4 - \Delta \varphi_4) + (l - l_3 + \Delta l_3)^2 - (l_4 - \Delta l_4) \} \tag{3}
\end{aligned}$$


Bo'g'inlarni og'ish burchaklarini maksimal va minimal qiymatlari orasidagi bog'lanishlar quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned}
\Delta \varphi_2 & = \varphi_{2\max} - \varphi_2 = \varphi_2 - \varphi_{2\min}; & \Delta \varphi_3 & = \varphi_{3\max} - \varphi_3 = \varphi_3 - \varphi_{3\min}; \\
\Delta \varphi_4 & = \varphi_{4\max} - \varphi_4 = \varphi_4 - \varphi_{4\min}; & \Delta \varphi_5 & = \varphi_{5\max} - \varphi_5 = \varphi_5 - \varphi_{5\min}; \\
\varphi_2 & = \frac{\Delta \varphi_{2\max} + \Delta \varphi_{2\min}}{2}; & \varphi_3 & = \frac{\Delta \varphi_{3\max} - \Delta \varphi_{3\min}}{2}; \\
\varphi_4 & = \frac{\Delta \varphi_{4\max} - \Delta \varphi_{4\min}}{2}; & \varphi_5 & = \frac{\Delta \varphi_{5\max} - \Delta \varphi_{5\min}}{2}; \tag{4}
\end{aligned}$$


Tavsiya etilgan variantda amortizatorlarning deformatsiyalari va bo'g'inlarning o'lchamlarini tanlash hisobiga elliptik trayektoriyani yuqori (materialni surish) qismida gorizontol kichik tugri chiziq qism hosil qilinadi. Bu o'z navbatida material

bilan reykaning o'zaro tegish yuzasini orttiradi. Ishqalanish kuchi ko'payib materialni bir xil qadamda surishga erishiladi.

3a-rasmda mavjud mexanizm va 3b-rasmda tavsiya etilgan mexanizm shatuni harakat qonuni (burilish burchagi) keltirilgan.



a-mavjud mexanizm




b-tavsiya etilgan mexanizm

Mavjud materialni surish mexanizmidagi reykali shatunning harakat qonunini uning geometrik o'lchamlarini bog'liqlik qonuniyatlarini

Tavsiya etilgan materialni surish mexanizmi sharnirlaridagi qayishqoq elementlar deformatsiyasi hisobiga bo'g'inlar uzunliklarini o'zgarishini reykali shatun harakat qonuniga ta'siri

### 3-rasm. Mexanizmning reykali shatun harakat qonuni

Reykaning o'rta nuqtasini harakat trayektoriyalarini bo'g'inlarning uzunliklari va og'ish burchaklari yuqori chastotali qamrov qiymatlariga bog'liqlik shakllari tahliliga asosan reykaning surilayotgan materiallar bilan kontakt zonasini to'liq taminlanishi 4-rasm, z-variantni ma'qulligini ko'rish mumkin.




$$\begin{aligned}
 a-\Delta l_2 &= 1,4 \cdot 10^{-3} \text{ M}; \Delta l_5 = 2,5 \cdot 10^{-3} \text{ M}; \\
 \Delta \varphi_{5B} &= 2,9^{\circ}; \\
 b-\Delta l_2 &= 1,6 \cdot 10^{-3} \text{ M}; \Delta l_5 = 2,7 \cdot 10^{-3} \text{ M}; \\
 \Delta \varphi_{5B} &= 2,0^{\circ}; \\
 v-\Delta l_2 &= 1,8 \cdot 10^{-3} \text{ M}; \Delta l_5 = 2,9 \cdot 10^{-3} \text{ M}; \\
 \Delta \varphi_{5B} &= 3,0^{\circ}; \\
 g-\Delta l_2 &= 2,0 \cdot 10^{-3} \text{ M}; \\
 \Delta l_5 &= 3,1 \cdot 10^{-3} \text{ M}; \Delta \varphi_{5B} = 2,0^{\circ};
 \end{aligned}$$

### 4-rasm. Reykali richagning reyka o'rnatilgan zona o'rta nuqtasi trayektoriyasi

Tavsiya etilgan tarkibli reyka tishli gorniturasi shatunga qayishqoq element (rezinali amortizator) orqali o'rnatilgan bo'lib, ishlash jarayonida reykali garnitura tegishli darajada tebranadi. Reyka tishlari surilayotgan materiallarga yetarli darajada

ta'sirlashsa, gazlama surish jarayoni talab doirasida bo'ladi. Buning uchun tarkibli reyka amortizatori va o'lchamlarini nazariy jihatdan tahlil qilish muhim hisoblanadi. Hisob sxemasiga asosan reyka materiallar bilan ta'sirlashganda materiallarni bosish kuchi, reyka va materiallar og'irligi, amortizator hamda materiallarni qayishqoqlik va dissipativ xususiyatlari inobatga olingan.



- 1-reykali shatun; 2-rezinali amortizator;  
3-reyka;  
a) tarkibli rezinali amortizatorli reyka sxemasi;  
b) reykaning tebranish hisob sxemasi

**5-rasm. Tarkibli amortizatorli reyka ko'rinishi va hisob sxemasi**

$$(m_M + m_p)\ddot{y} + (b_M - b_p)\dot{y} + \frac{c_M \cdot c_p}{c_p - c_M} y = F_1 + F_0 \sin \omega t \pm \delta F_1 \quad (5)$$

bu yerda,  $m_m, m_r$  - material va reyka tishli gorniturasini massalari;

$b_M, b_p$  - material va rezinali amortizator dissipatsiya koeffitsiyentlari;

$c_M, c_p$  - material va rezinali amortizator bikrlilik koeffitsiyentlari,

$F_1, F_0, \delta F$  - materialdan tishli gornitura ta'sir kuchining o'zgarish, o'zgarishidagi amplitudasi, hamda tasodifiy tashkil etuvchisi inobatga olindi.


$$t = 0; y = y_0; \dot{y} = 0:$$

$$y = \frac{F_0^1 \sin(\omega t - \epsilon)}{\sqrt{\left[ \frac{c_M \cdot c_p}{(m_M + m_p)(c_M - c_p) - \omega^2} + \frac{\omega(b_M - b_p)}{m_M + m_p} \right]^2}} \quad (6)$$

bu yerda,  $F_0^1 = \frac{F_0}{m_M + m_p}; \quad p_y = \sqrt{\frac{c_M \cdot c_p}{(m_M + m_p)(c_p - c_M)}}$

Olingan qonuniyatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, surilayotgan materiallar ta'sir kuchi ortishi bilan reyka tishli gorniturasini tebranish amplitudasi ham ortadi, lekin tebranish chastotasi o'zgarib qoladi. Olingan tebranish qonuniyatlarini qayta ishlash natijasida parametrlarni o'zaro bog'lanish grafiklari tuzildi.

6-rasmda tarkibli reykaning tishli gorniturasining tebranish amplitudasi o'zgarishini rezinali amortizator bikrlilik koeffitsiyentiga bog'lig'lik grafiklari keltirilgan. Tahlillarga asosan, rezinali amortizator bikrlilik koeffitsiyenti  $0,4 \cdot 10^3 \text{ H/M}$  dan  $2,4 \cdot 10^3 \text{ H/M}$  gacha ortganida  $b_1(m_M + m_p) = 2,5 \cdot 10^{-2} \text{ kN}$  bo'lganda  $A_y$  qiymatlari  $1,23 \cdot 10^{-3} \text{ m}$  dan  $0,74 \cdot 10^{-3}$  gacha noxiziqli bog'lanishda pasayib boradi.




$$(m_M + m_p) = 2,5 \cdot 10^{-2} \text{ кг}; \quad 2-(m_M + m_p) = 3,5 \cdot 10^{-2} \text{ кг};$$

$$3-(m_M + m_p) = 4,5 \cdot 10^{-2} \text{ кг};$$

6- rasm. Tarkibli reykaning tishli garniturasining tebranish amplitudasi o'zgarishini rezinali amortizator bikrlilik koeffitsiyentiga bog'lig'lik grafiklari

7-rasmda Tarkibli reykaning tishli garniturasining tebranish amplitudasini uning va materialning umumiy massalariga bog'liqlik grafigi keltirilgan.



$$1-(F_1 + F_0) = 2,5 \text{ H};$$


$$2-(F_1 + F_0) = 1,8 \text{ H};$$

$$3-(F_1 + F_0) = 1,2 \text{ H}$$

7- rasm. Tarkibli reykaning tishli garniturasining tebranishdagi siljishi va tezlik o'zgarishini materialning ta'sir kuchini o'zgarishiga bog'liqlik grafigi

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, materiallar va reyka tishli garniturasining umumiy massalari qiymatlari  $0,71 \cdot 10^{-2} \text{ kg}$  dan  $4,5 \cdot 10^{-2} \text{ kg}$  gacha,  $(F_1 + F_0) = 2,5 \text{ N}$  bo'lganida ko'payganida ularning tebranish amplitudasi  $A_y$  qiymatlari  $1,17 \cdot 10^{-3}$  dan  $0,492 \cdot 10^{-3} \text{ m}$  gacha kamaysa, mos ravishda  $(F_1 + F_0) = 1,2 \text{ N}$  bo'lganida  $A_y$  qiymatlari  $0,728 \cdot 10^{-3} \text{ m}$  dan  $0,223 \cdot 10^{-3} \text{ m}$  gacha nochizikli qonuniyatda kamayishini ko'rish mumkin. Demak, reyka tishli garniturasining tebranish amplitudasini oshib ketmasligini taminlash uchun tavsiya qiymatlari:  $(m_M + m_p) \geq (1,3 \div 1,8) \cdot 10^{-2} \text{ kg}$

8-rasmda reyka tishli garniturasini material bilan ta'sirlashish sxemasi keltirilgan.



a-tishli garniturani materialga chetki nuqtalarda tegish holati;

b-materiallarni o'rtadagi reyka tishiga tegish holati;

v-materialga o'rtadagi reyka tishini botish holati.

### 8-rasm Tavsiya kilingan materialni surish mexanizmi tarkibli reykan material bilan ta'sirlanish holatlari


Material va reyka tishlari yuzalaridagi mikro g'adir-budurliklarni harakatga qarshiligini  $f_{ishq}$  orqali ifodalansa, qo'shimcha reyka tishlarini materialga kirib ilashish holatida harakatga qarshiligini qo'shimcha  $f_{kl}$  orqali belgilaymiz, u holda ishqlanish kuchi:

$$F_{uuq} = (f_{uuq} + f_{kl}) [(m_m + m_p)g + (h_3 + \Delta_2)C_m - \Delta_p C_p] \quad (7)$$

Tavsiya etilgan materialni surish mexanizmida reyka materialni surishida reyka tishlari balandliklari hamda rezinali amortizator bikrligini tanlash muhim hisoblanadi. Tavsiya etilgan reyka tishlari uchlari egri chiziq hosil qilib, eng chetidagi tishlari balandliklari kattarok qilib olingan. Bunda ushbu tishlar reykanu yuqoriga ko'tarilishi tugamasdan oldin materialga ta'sir qiladi, qalinroq bo'lsa, reyka tishlari materialga tegishi shuncha katta bo'ladi. Ya'ni  $h_3$  qiymati  $1,2 \cdot 10^{-3} m$  dan  $2,5 \cdot 10^{-3} m$  gacha ortganda  $F_{ishq}$  qiymatlari 0,74N dan 2,6N gacha chiziqli bog'lanishda ortadi, lekin  $(m_m + m_p) = 2,5 \cdot 10^{-2} kg$  gacha kamayganida ishqlanish kuchi 0,47 N dan 0,48 N gacha chiziqli bog'lanishda ko'payadi. Ishqlanish kuchi (1,5÷2,0) N oralig'ida bo'lishligini taminlash uchun reyka chetki tishini balandligi  $(1,7 \div 2,5) \cdot 10^{-3} m$  oralig'ida olish tavsiya etiladi.

Amortizator bikrlik koeffitsiyenti  $0,71 \cdot 10^{-3} N/m$  dan  $2,5 \cdot 10^{-3} N/m$  gacha ortganda va  $f_{ishq} = 0,15$  bo'lganda  $f_{ishq}$  qiymatlari 2,5 k dan 1,05 k gacha chiziqli qonuniyatga kamaysa,  $f_{ishq} = 0,09$  bo'lishida ishqlanish kuchi 2,2 N dan 0,47 N gacha chiziqli bog'lanishda kamayadi. Yuqorida takidlagandek,  $C_p$  qiymatlari  $(1,2 \div 1,6) \cdot 10^{10} N/m$  oralig'ida bo'lishi taminlanganda material va reyka orasidagi ishqlanish kuchi (1,622,0)n bo'lishi mos ta'minlanadi.

Dissertatsiyaning "Tavsiya etilgan materialni surish mexanizmini tajribaviy tadqiqotlar natijalari" deb nomlangan uchinchi bobida surish mexanizmi o'rnatilgan tikuv mashinasida tajribalar metodikasi, bosh val va koromislo vali aylanish chastotasi, aylanish qonuniyatlari, harakat rejimlari, reyka tishli garniturasini vertikal va gorizonta tebranish qonuniyatlari parametrlariga bog'liqligi, to'liq omilli tajribalar natijalari keltirilgan. 9-rasmda elektrotenzometrik sxema keltrilgan.




1-bosh val; 2,3-koromislolar vallari; 4-reyka; xoll datchik; 5,7,8-tenzodatchiklar; 9,10-reykani vertikal va gorizontaal siljishlarini o'Ichagich dachiklari; 11-tenzometrik kuchaytirgich; 12-raqamli qayta o'zgartiruvchi LTR-154; 13-raqamli rostlagich; 14-EXM raqamli ostsilograff.

**9-rasm. Tavsiya etilgan materialni surish mexanizmi tikuv mashinasi**

Tajribalarni o'tkazishda tavsiya etilgan materialni surish mexanizmidagi kinematik juftlardagi rezinalarning quyidagi markalari ishlatildi: 7IRP 31-46, 1847, 1338, NO-68. Ostsilogrammalar tahlili shuni ko'rsatdiki, sistemani barqaror xarakterga chiqish vaqti ( $0,018 \pm 0,023$ )s oralig'ida, to'xtash vaqti esa, ( $0,02 \pm 0,03$ )s oralig'igacha bo'lishi aniqlandi. Demak, sistemaning to'xtash vaqti barqaror xarakterga chiqishga qaraganda ( $0,04 \pm 0,06$ )s ga uzoqroq bo'lishi kuzatildi. Buning asosiy sababi sistemaning inertsiya xarakteristikasiga, tebranishlarni so'nishiga bog'liqdir. Ostsilogrammalar tahliliga asosan ta'kidlash mumkinki, tavsiya etilgan materialni surish mexanizmidagi rezinali amortizatorlarini bikriklari ortishi bilan burovchi momentlar  $M_{\delta}$ ,  $M_{K_1}$ ,  $M_{K_2}$  qiymatlari ortadi, lekin reykani o'qlar bo'yicha siljish qiymatlari kamayadi. Mos ravishda tikilayotgan materiallar qalinliklarini ko'payishi 11-rasmda tarkibli reyka trayektoriyasi vertikal va gorizontaal maksimal siljishlarini tikilayotgan materiallar qalinligiga bog'liqlik grafiklari keltirilgan.


Tikilayotgan materiallar qalinligini  $2,0 \cdot 10^{-3}$  m dan  $4,0 \cdot 10^{-3}$  m gacha ortganida reyka tishli garniturasini gorizontaal o'q bo'yicha deyarlik kichik masofaga o'zgaradi, ya'ni farqi  $(0,15 \div 0,2) \cdot 10^{-3}$  m oralig'ida bo'ladi. Lekin vertikal "y" o'qi bo'yicha sezilarli darajada kamayadi.



$h_M = 3,5 \cdot 10^{-3} \text{ m}$ ; HO-68 markali rezina

**10-rasm. Tavsiya etilgan materialni surish mexanizmi qo‘llanilgan tikuv mashinasida bosh valni, surish mexanizmi koromislolalri vallaridagi burovchi momentlar, tarkibli reykali tishli garnituraning vertikal va gorizontaal o‘qlari bo‘yicha siljish qonuniyatlari**


Jumladan 1338 markali rezina surish mexanizmidagi qo‘llanilganda, reyka tishli garniturasini  $2,23 \cdot 10^{-3} \text{ m}$  dan  $1,53 \cdot 10^{-3} \text{ m}$  gacha noxiziq qonuniyatida kamayishi kuzatildi. Mos ravishda bikrligi yuqori bo‘lgan  $(1,2 \div 1,6) \cdot 10^{-3} \text{ N/m}$  NO-68 markali rezina qo‘llanilganda vertikal o‘q bo‘yicha reykali garnitura siljishi  $1,79 \cdot 10^{-3} \text{ m}$  dan  $1,39 \cdot 10^{-3} \text{ m}$  gacha kamaydi. Reykaning tishli garniturasini vertikal siljishini  $(1,5 \div 2,0) \cdot 10^{-3} \text{ m}$  oralig‘ida ta‘minlash uchun tikilayotgan materiallar qalinligiga  $h_M \leq (4,0 \div 4,5) \cdot 10^{-3} \text{ m}$  bo‘lishi tavsiya etiladi.



$1,3-X_{\text{MAX}} = f(h_M); 2,4-Y_{\text{MAX}} = f(h_M);$   
 1,2-1338 markali rezina; 3,4-HO-68 markali rezina

**11-rasm. Tarkibli reyka trayektoriyasidagi vertikal va gorizontaal maksimal siljishlarini tikilayotgan materiallar qalinligiga bog‘liqlik grafiklari**

Lekin, vertikal o‘q bo‘yicha reykaning tishli garniturasini siljishi ko‘p jihatdan uning rezinali amortizatori bikriligiga bog‘liq bo‘ladi.



$$3-Y_{\max} = f(C_p); h_M = 2,0 \cdot 10^{-3} \text{ m};$$

$$4-\Delta Y = f(C_p)\text{-nazariy grafik.}$$

**12-rasm. Tarkibli reyka trayektoriyasi vertikal siljishidagi maksimal qiymatlarini materialni surish mexanizmi tarkibli kinematik juftlaridagi va reyka amortizatori bikrlilik koeffitsiyentlariga bog‘liqlik grafiklari**

Lekin, reyka tishli garniturası rezinali tayanchi bikrligi inobatga olinganda  $Y_{\max}$  qiymatlari  $2,53 \cdot 10^{-3} \text{ m}$  dan  $1,56 \cdot 10^{-3} \text{ m}$  gacha nochizıqlik qonuniyatda kamayadi (12-rasm 3-grafik).

Ta’kidlash lozimki, nazariy tomondan olingan natijalar bilan solishtirilganda (12-rasm, 4-grafik) ularni farq  $(8,0 \div 9,0)\%$  dan oshmaydi. Demak, reyka tishli garniturası tebranish qamrovini  $(2,5 \div 3,0) \cdot 10^{-3} \text{ m}$  oralig‘ida bo‘lishini ta’minlash uchun amortizator uchun NO-68 markali rezinasini qo‘llash tavsiya etiladi. To‘liq omilli faktorlarga quyidagilar kiradi.  $X_1$ –bosh valining minutiga aylanishlar soni, ayl/min;  $X_2$ –kinematik juftlardagi rezinali vtulkalar bikrliklarini nisbati;  $X_3$ –reyka amortizatori bikrligi,  $10^3 \text{ N/m}$ . Chiquvchi omil sifatida  $Y$  – bahyaqatorni uzish kuchi, cH olindi. Bunda regressiya tenglamasi quyidagicha bo‘ladi:

$$\bar{Y}_R = 141,1 - 0,79X_1 - 2,89X_2 + 1,43X_3 - 0,59X_1X_2 + 0,162X_1X_3 - 1,73X_2X_3 + 0,327X_1X_2X_3$$

Masalani yechimi asosida bog‘lanish grafiklari tahliliga ko‘ra quyidagi maqbul parametrlar tavsiya:

- tikuv mashinasi bosh vali aylanishlar chastotasi – 4500 ayl/min;
- materialni surish mexanizmi kinematik juftlaridagi rezinali vtulkalar bikrlilik koeffitsiyentlari nisbati –  $(1,0 \div 1,1)$ .
- tarkibli reka amortizatori bikrlilik koeffitsiyenti  $-1,2 \cdot 10^{-3} \text{ N/m}$ .

Ushbu omillarning qiymatlarida baxaqatorni uzish kuchini yuqoriligi ta’minlanadi.

Dissertatsiyaning “Tavsiya etilgan qayishqoq elementlari bo‘lgan materialni surish mexanizmi tikuv mashinasini qiyosiy ishlab chiqarish sinovlari natijalari va iqtisodiy samaradorlik” deb nomlangan to‘rtinchi bobida tavsiya etilgan qayishqoq elementlari bo‘lgan materialni surish mexanizimli tikuv mashinasini qiyosiy ishlab chiqarish sinovlari natijalari va iqtisodiy samaradorlik hisobi keltirilgan.

Modernizatsiya qilingan tikuv mashinasida qayishqoq elementlari bo‘lgan material surish mexanizmi qo‘llanilganda ishlab chiqarish sinovlari natijasi bo‘yicha mavjud tikuv mashinasiga nisbatan yuqori sifat ko‘rsatgichlariga erishildi:

- ish unumi mavjud tikuv mashinasiga nisbatan  $(1,2 \div 1,25)$  barobarga ortdi;
- shovqin keskin pasaydi;

- choklardagi baxyalarni o'tkazib yuborish ip uzilishi bo'lmadi;
- igna sinishi kuzatilmadi;
- choklarni so'kish va tikilish zonada choklardagi iplar tarangligini o'zgarishi va materialni surishda g'ijimlanishlar bo'lmadi (ayniqsa ko'p qatlamli materiallarni tikishda);
- tikuv mashinasi to'xtalishlari kuzatilmadi.

Tavsiya qilingan qayishqoq elementlari bo'lgan richagli materialni surish mexanizmi yangi konstruksiyasini tikuv mashinasida qo'llanishdan olingan yillik iqtisodiy samaradorlik "G'AYRAT CHODAK" MCHJ korxonasi bo'yicha 610,12 mln so'mni tashkil etadi.

## XULOSA

1. Tikuv mashinalarida materialni surish mexanizmini takomillashmaganligi sababli ish unumini oshirish chegaralanganligi, bir tekisdagi bahyalarni olishni ta'minlamasligi, ip uzilishi, bahyaqatorlarni o'tkazib yuborish, igna sinishi kabi salbiy oqibatlarni sodir bo'lishiga, shuningdek shovqinning yuqoriligi va konstruksiya resursi yuqori emasligiga olib keladi. Tikuv mashinasining material surish mexanizmidagi kinematik juftlarida va reyka tayanchida qayishqoq elementlarni qo'llab samarali konstruktiv sxemasi tavsiya etilgan.

2. Tavsiya etilgan materialni surish mexanizmini strukturaviy tahlili amalga oshirildi, kinematik juftlardagi ortiqcha bog'lanishlar bartaraf etish va reaksiya kuchlarini kamaytirish sharti aniqlandi. Mavjud va tavsiya etilgan materialni surish mexnizmlari kinematik xarakteristikalarini aniqlandi. Tavsiya etilgan materialni surish mexanizmidagi tarkibli kinematik juftlaridagi qayishqoq elementlarni maksimal deformatsiyalanishlarini inobatga olib reykaning shatun va koromislolarning uzunliklarini va og'ish burchaklarini ifodalovchi formulalar olindi.

3. Tavsiya qilingan tikuv mashinasi materialni surish mexanizmi reykaning shatunini tebranish amplitudasini kinematik juftlar qayishqoq elementlarining deformatsiyalarini inobatga olgan holda shatun uzunligiga bog'liqlik grafiklari qurildi. Reyka trayektoriyasi cho'ziq ellipseptik shaklga ega bo'lishi uchun

$$l_5 = (6,2 \div 7,0) \cdot 10^{-3} \text{ m} \text{ hamda } \Delta l_2 = (1,5 \div 1,7) \cdot 10^{-3} \text{ m};$$

$$\Delta l_4 = (2,3 \div 2,5) \cdot 10^{-3} \text{ m} \quad \Delta l_5 = (2,8 \div 3,0) \cdot 10^{-3} \text{ m};$$

$$\Delta l_6 = (3,5 \div 3,7) \cdot 10^{-3} \text{ m}; \text{ qiymatlari tavsiya etiladi.}$$

4. Reykaning garnitura amplitudasini  $(0,75 \div 0,98) \cdot 10^{-3} \text{ m}$  dan oshmasligini ta'minlash uchun rezinali amortizator bikrlilik koeffitsiyenti qiymatlarini  $(1,2 \div 1,6) \cdot 10^{-3} \text{ N/m}$  dan kattaroq qilib olish maqsadga muvofiqdir.

Tikilayotgan material bikrligi yuqori bo'lsa, reyka tishli garniturasini tebranish amplitudasini kamaytiradi. Shuning uchun reyka tishli garniturasini

tebranishlarini  $(0,75 \div 0,95) \cdot 10^{-3} \text{ m}$  dan, tebranish tezligini  $(2,2 \div 2,5) \text{ m/s}$  dan oshmasligini ta'minlash uchun tavsiya parametrlari:

$$(F_1 + F_0) \leq (1,45 \div 1,8)H; C_M = (1,0 \div 1,2) \cdot 10^3 \text{ N/m};$$

$$(m_M + m_p) \geq (1,3 \div 1,8) \cdot 10^{-2} \text{ kg.}$$

5. Tarkibli reyka tishli garniturasini materialni ishqalanish kuchini reyka tishlarini materialga botish masofasini, amortizatorni bikrligini inobatga olib

hisoblash formulalari tavsiya etildi. Ishqalanish kuchi  $(1,5 \div 2,0)$  N oralig'ida bo'lishligini ta'minlash uchun reyka chetki tishini balandlig  $(1,7 \div 2,5) \cdot 10^{-3}$  m oralig'ida olish tavsiya etiladi. Rezinali amortizator bikrluk koeffitsiyenti qiymatlari  $(1,2 \div 1,6) \cdot 10^{10^{-3}}$  N/m oralig'ida bo'lishi taminlanganda material va reyka orasidagi ishqalanish kuchi  $(1,622,0)$  n bo'lishi mos keladi.

6. Mavjud va modernizatsiya qilingan tikuv mashinasidagi bosh vallar harakat qonunlari, burovchi momentlarini o'tish jarayonlaridagi va barqaror harakatdagi o'zgarish, qonunlari, koromislolar vallaridagi burovchi momentlar hamda reyka tishli garniturasini harakat qonunlari turli ish rejimlarida aniqlandi. Tikuv mashinasi bosh valini va yuritish mexanizmlarini barqaror xarakatga chiqish va to'xtash vaqtlarini bosh valni burchak tezligiga bog'liqlik grafiklari olingan. Tavsiya etilayotgan materialni surish mexanizmi qo'llanilganda undagi rezinali amortizatorlar hisobiga o'tish jarayonlaridagi, ayniqsa yuqori chastotali tebranishlar yo'qotilishi hisobiga o'tish jarayonlari vaqti  $(1,2 \div 1,4)$  martagacha kamayadi.

7. Tikuv mashinasi bosh validagi burovchi moment va burchak tezliklarini hamda materialni surish mexanizmi koromislolasi validagi yuklanish o'zgarishini tikilayotgan material qalinligiga bog'liqlik grafiklari qurilgan. Bosh val va koromislolasi validagi yuklanishni kamaytirish, tikish tezligini yuqoriligini ta'minlash uchun materialni surish mexanizmidagi reyka va kinematik juftlarda qo'llaniladigan amortizatorlari uchun NO-68 markali rezinani olish maqsadga muvofiqdir.

8. Bosh valdagi burovchi moment va burchak tezlikning tebranish qamrovlari qiymatlarini material qalinligiga bog'liqlik grafiklari qurilgan. Bosh valni aylanish tezligini  $(515 \div 560) s^{-1}$  dan oshmasligi hamda  $h_m = 4,0 \cdot 10^{-3}$  m dan ko'p bo'lmasligi maqsadga muvofiqdir. Bunda tavsiya qiymatlari:

$$C_{k_1} = (1,2 \div 1,4) \cdot 10^3 \text{ N/m}; C_{k_2} = (1,5 \div 1,7) \cdot 10^3 \text{ N/m};$$

$$C_p = (1,6 \div 1,8) \cdot 10^3 \text{ N/m}.$$

9. Tavsiya etilgan tarkibli, qayishqoq elementli materialni surish mexanizmi bo'lgan modernizatsiya qilingan tikuv mashinasini to'liq omilli tajribaviy tadqiqotlari natijalariga asosan kiruvchi omillarning quyidagi maqbul qiymatlari tavsiya etiladi:

- tikuv mashinasi bosh vali aylanishlar chastotasi – 4500 ayl/min;
- materialni surish mexanizmi kinematik juftlaridagi rezinali vtulkalar bikrluk koeffitsiyentlari nisbati –  $(1,0 \div 1,1)$ .
- tarkibli reyka amortizatori bikrluk koeffitsiyenti  $1,2 \cdot 10^{-3}$  N/m.

Ushbu omillarning qiymatlarida baxaqatorni uzish kuchi yuqoriligi ta'minlanadi.

10. Tavsiya etilgan modernizatsiya qilingan tikuv mashinasida qayishqoq elementlari bo'lgan material surish mexanizmi qo'llanilganda ishlab chiqarish sinovlari natijasi bo'yicha mavjud tikuv mashinasiga nisbatan yuqori sifat ko'rsatgichlariga erishildi:

- ish unumi mavjud tikuv mashinasiga nisbatan  $(1,2 \div 1,25)$  barobarga ortdi;
- shovqin keskin pasaydi;
- choklardagi baxyalarni o'tkazib yuborish ip uzilishi bo'lmadi;
- igna sinishi kuzatilmadi;

- choklarn so‘kish va tikilish zonada choklardagi iplar tarangliginio‘zgarishi va materialni surishda g‘ijimlanishlar bo‘lmadi (ayniqsa ko‘p qatlamli materiallarni tikishda);

- tikuv mashinasi to‘xtalishlari kuzatilmadi.

11. Tavsiya qilingan qayishqoq elementlari bo‘lgan richagli materialni surish mexanizmi yangi konstruksiyasini tikuv mashinasida qo‘llanishdan olingan yillik iqtisodiy samaradorlik “G`AYRAT CHODAK” MCHJ, korxonasi bo‘yicha 610,12 mln so‘m, “Parvozteks” MCHJ korxonasi bo‘yicha 600,21 mln so‘mni tashkil etadi.

**УЧЁНЫЙ СОВЕТ PhD.03/29.10.2021.Т.101.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ИНЖЕНЕРНО-  
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

---

**БУХАРСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

**ТУРСУНОВА ГУЛБАХОР ШАРИПОВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОНСТРУКЦИИ И МЕТОДОВ РАСЧЕТА  
МЕХАНИЗМА ПЕРЕМЕЩЕНИЯ МАТЕРИАЛА ШВЕЙНОЙ МАШИНЫ**

**05.02.03- Технологические машины. Роботы, мехатроника  
и робототехнические системы**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Диссертация выполнена в Бухарском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский) размещен на веб-странице научного совета Бухарского инженерно-технологического института [www.bmti\\_info@edu.uz](mailto:bmti_info@edu.uz) и информационно-образовательном портале [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).

**Научный руководитель:** **Джураев Анвар**  
кандидат технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Мухаммадиев Давлат Мустафоевич**  
доктор технических наук, профессор

**Курбонов Фазлиддин Омонович**  
кандидат технических наук, доцент

**Ведущая организация:** **Наманганский инженерно-технологический институт**

Защита диссертации состоится “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2023 года в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета PhD.03/29.10.2021.T.101.03 при Бухарском инженерно-технологическом институте. (Адрес: 200117, г. Бухара, ул. К.Муртазаева, 15. Тел.: (+99865) 223-78-84, факс: (+99865) 223-78-84, e-mail: [bmti\\_info@edu.uz](mailto:bmti_info@edu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского инженерно-технологического института (Зарегистрирован №\_\_\_). Адрес: 200117, г. Бухара, ул. К.Муртазаева, 15. Тел.: (+99865) 223-78-84, факс: (+99865) 223-78-84, e-mail: [bmti\\_info@edu.uz](mailto:bmti_info@edu.uz).

Автореферат диссертации разослан “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2023 года.  
(реестр Протокола рассылки №\_\_\_ от “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2023 года).

**Х.К.Рахронов**

Председатель Научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

**Р.Х.Нурбоев**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

**М.З.Шарипов**

Председатель Научного семинара при научном совете  
по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.ф., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

